



Bo'lg'usi pedagog – tarbiyachilarni maktabgacha ta'limda innovatsiyalar va xorijiy tajribalar bilan tanishtirishning asosiy vazifalari

Qo'qon davlat universiteti dotsenti,
Pedagogika fanlari doktori (DSc)
Xushnazarova Ma'mura Nodirovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lg'usi pedagog – tarbiyachilarni maktabgacha ta'limda innovatsiyalar va xorijiy tajribalar fanining nazariy asoslariga doir bilimlar bilan qurollantirish, ularda maktabgacha ta'limda innovatsiyalar hamda rivojlangan xorijiy davlatlarda maktabgacha ta'lim tizimi haqida bilim ko'nikma va malakalarni shakllantirish masalalari yoritilgan

Kalit so'zlar : innovatsion faoliyat, innovatsiyalar va xorijiy tajribalar, qiyosiy tahlil , innovatsion mahorat, innovatsion texnologiyalar

Respublikamizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, jahon talablari darajasida ta'lim olishi va kasb egallashi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur tashkilotlarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Res'ublikasida takomillashtirilgan “ Ilk qadam Davlat dasturi asosida Maktabgacha ta'lim tashkilotining o'quv-metodik faoliyatini samarali tashkil etish, bolalarni har tomonlama intellektual, psixologik, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va innovatsion texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan isloh qilish yuzasidan pedagog kadrlar bilan ishlash, ularga metodik maslahatlar berib borish; tashkilot guruhlarida bolalar yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish va faollik markazlarini zarur o'quv-metodik, didaktik materiallar bilan ta'minlash, ulardan samarali foydalanishini ta'minlash; tashkilotda tarbiyalanuvchilarning intellektual, psixologik, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishini kuzatish, baholashga doir ma'lumotlarni umumlashtirish, kuzatuv xaritalarini yuritilishini nazorat va tahlil qilish olingan natijasiga ko'ra aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, bolalarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonlarni tashkil etish masalalari

F.R.Qodirova, SH.SHodmonova, SH.Sodiqova, D.Babeva, G.E.Djanpeisova, N.Abdullaeva, M.Berdieva, N.Rejametova kabi pedagog, psixolog va faylasuflar tomonidan o’rganilgan.

Mazkur sohani takomillashtirish maqsadida qabul qilingan dasturda maktabgacha ta’lim sohasi uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo’g’ini sifatida, bu jarayonda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining bolalar huquqiy savodxonligini shakllantirishdagi o’rni hamda, respublikada ta’lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo’nalishi ekanligi tahkidlangan. SHu bilan bir qatorda maktabgacha ta’lim sohasidagi islohotlarning asosi bo’lgan huquqiy me’yoriy hujjatlarning mazmun-mohiyatini ochib beradi.

Maktabgacha ta’lim yo’nalishida “Maktabgacha ta’limda innovatsiyalar va xorijiy tajribalar”fani o’quv rejaga kiritilgan. Ushbu fanning ishchi dasturi maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisini “ Takomillashtirilgan Ilk qadam davlat Dasturi “ asosida tuzilgan bo’lib, u maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi uchun dasturilamal vazifani bajaradi.

Bo’lg’usi pedagog – tarbiyachilarni maktabgacha ta’limda innovatsiyalar va xorijiy tajribalar fanining nazariy asoslariga doir bilimlar bilan qurollantirish, ularda maktabgacha ta’limda innovatsiyalar hamda rivojlangan xorijiy davlatlarda maktabgacha ta’lim tizimi haqida bilim ko’nikma va malakalarni shakllantirish ushbu fanning asosiy maqsadi hisoblanadi.

“Maktabgacha ta’limda innovatsiyalar va xorijiy tajribalar” fanining asosiy vazifalari:

1. Bo’lg’usi pedagog – tarbiyachilarda maktabgacha ta’lim tashkilotida innovatsiyalar va xorijiy tajribalar to’g’risidagi bilimlarni shakllantirish.

2. Maktabgacha ta’lim tizimida xorijiy tajribalarni qiyosiy tahlil qilish orqali o’quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish.

3. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarini pedagogik innovatsion mahoratini tizimga solish va uni rivojlantirish

4. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mashg’ulotlarni innovatsion texnologiyalar asosida samarali tashkil etish yo’llarini o’rgatish kabi ko’nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Ushbu fan bo’yicha talabalarning bilim, ko’nikma, malaka va kompetentsiyalariga qo’yiladigan talablar :

- jamiyat taraqqiyotidagi ta’lim-tarbiya jarayonining ahamiyatini;
- ta’lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish bosqichlarini;
- innovatsion jarayon: pedagog va uning faoliyatini;
- ta’limga texnologik yondashuv asosida mashg’ulotlarning o’quv tarbiyaviy maqsadini qo’ya olish;
- tarbiyalanuvchilar faoliyati faolligini jadallashtirish asosida innovatsion pedagogik texnologiyalarni tanlay olish;
- maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mashg’ulotlarni tashkil etishda maqbul metodlarni tanlash malakasiga ega bo’lish ;
- o’yinli texnologiyalar va ulardan mashg’ulotlar davrida foydalana olish;
- zamonaviy tarbiyachi imidji bo’yicha zamonaviy talablarni bilishi;

-shaxsning mahnaviy-axloqiy sifatlarini faol shakllantirish, ta’lim-tarbiya jarayonini innovatsion pedagogik texnologiya tamoyillariga mos ravishda pedagogik maqsadga muvofiq tashkil etish va amalga oshirish, ta’lim - tarbiya mazmuniga oid axborotlarni qayta ishlash, umumlashtirish va bolalarga yetkazish;

- ta’lim samaradorligini oshirish uchun innovatsiyalar va xorijiy tajribalardan foydalanish;

- mashg’ulotlarda ta’lim resurslaridan foydalanish;

- o’qitish mazmuniga oid axborotlarni qayta ishlash, umumlashtirish va bolalarga yetkazish ko’nikmalarini;

- o’quv jarayonini texnologiyalashtirish;

- ta’lim-tarbiya texnologiyalarini o’z faoliyatida qo’llay olish;

- o’quv jarayonini tashkil etish va samarali boshqarish asosida pedagogik texnologiyani tanlay olishi, zamonaviy talablar asosida mashg’ulotlarni tashkil etish malakalariga ega bo’lishi;

- jahon tajribasida mavjud innovatsion ta’lim-tarbiya texnologiyalaridan xabardor bo’lishi va kasbiy faoliyatda foydalanish.

«Maktabgacha ta’limda innovatsiyalar va xorijiy tajribalar» fani nazariy va amaliy mashg’ulotlar shaklida olib boriladi. Nazariy mashg’ulotlarda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi tarbiyachi-pedagog faoliyatida innovatsiyalar, ta’limda xorijiy tajribalar haqida ma’lumotlar beriladi. Amaliy mashg’ulotlarda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining vazifalari, ta’lim-tarbiya jarayonini innovatsion texnologiyalarni nazariy va amaliy asoslari, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mashg’ulotlarni tashkil etishda innovatsion texnologiyalarning yo’llari, mashg’ulotlarni loyixalashtirish, tarbiyachining ta’lim-tarbiya jarayonida ilg’or ta’lim texnologiyalaridan foydalanishga doir jahon tajribasi o’rgatiladi. Mashg’ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so’rovlar, test so’rovlari, amaliy mashg’ulotlar, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interaktiv ta’lim usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Ushbu fan o’quv rejadagi «Maktabgacha ta’limni rivojlantirishning kontseptual asoslari» «Ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning me’yoriy asoslari» fanlari bilan uzviy bog’langan holda tarbiyachilarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Talabalarga «Maktabgacha ta’limda innovatsiyalar va xorijiy tajribalar» fanini o’qitishda tarbiyachining innovatsion faoliyati, ta’limda innovatsion xorijiy tajribalar haqida bilimlarni rivojlantirish hamda amalda qo’llash ko’nikmalarini shakllantirish orqali ta’lim samaradorligini ta’minlashdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O’zbekiston Respublikasi 2019 yil 16 dekabrda “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida”gi Qonuni

2.Djuraev R.X., Turg’unov S.T. Ta’lim menejmenti: O’quv qo’llanma. – Toshkent: Voris, 2006. – 264 b.

3.Zvereva V.I. Organizatsionno-pedagogicheskaya deyatel’nostg’ rukovoditelya shkolq. – 2-e izd., pererab. i dop. – M.: Novaya shkola, 1997. – 320s.

4.Yo’ldoshev J.G’., Usmonov S.A. Ta’lim menejmenti. – Toshkent, 2006. – 73 b.

5.Kalinin I.V. Strategiya podbora kadrov kak stilevaya xarakteristika upravlencheskoy deyatelg’nosti rukovoditelya: Diss. ... kand. psixol. nauk. – M., 1996. – S. 33-36.

6.Region: Upravlenie obrazovaniem, teoriya i praktika / Pod red. P.I. Tretg’yakova. – M.: Novaya shkola, 2001. – 880 s.

7.Sattarov E.N., Alimov X.N. Boshqaruv muloqoti. – Toshkent: Akademiya, 2004. – 70 b.

8.Sekun V.I. Formirovanie individualg’nqx strategiy organizatorskoy deyatelg’nosti rukovoditelya // Sotsialg’no-psixologicheskie metodq prakticheskoy rabotq v kollektive: diagnostika i vozdeystviy. – M., 1990. – S.180-186.

9.SHodmonov Q.O. Oliy o’quv yurtlari kasb ta’limi yo’nalishi talabalarini boshqaruv faoliyatiga tayyorlash: Ped.f.n. ...diss. – Toshkent, 2008. – 153 b.